



**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI YOSHLAR ISHLARI AGENTLIGI**  
**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI XALQ TA'LIMI VAZIRLIGI**  
**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI INNOVATSION RIVOJLANISH VAZIRLIGI**  
**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI**  
**OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI**  
**O'ZBEKISTONDAGI ISLOM SIVILIZATSIYASI MARKAZI**  
**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI FANLAR AKADEMIYASINING**  
**QARORI**

**Oliy ta'lif va ilmiy tadqiqot muassasalarida ilmiy-izlanish olib borayotgan yosh manbashunos olimlar, tadqiqotchi va magistrler o'rtasida "Uchinchi Renessans – yoshlар nigohida" tanlovini yuqori saviyada o'tkazish to'g'risida**

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi O'zbekistondagi islam sivilizatsiyasi markazi faoliyatini yanada takomillashtirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" 2021-yil 16-iyuldag'i PQ-5186-son qarori 1-ilovasi bilan tasdiqlangan Jalon ilm-fani taraqqiyoti va sivilizatsiyasiga hissa qo'shgan ajdodlar ilmiy merosini tadqiq etish hamda yangi yuksalish davridagi yutuqlarni targ'ib qilish bo'yicha "Yo'l xaritasi"ning 9-bandida belgilangan vazifalar ijrosini ta'minlash maqsadida oliy ta'lif va ilmiy tadqiqot muassasalarida ilmiy-izlanish olib borayotgan yosh manbashunos olimlar, tadqiqotchi va magistrler o'rtasida "Uchinchi Renessans – yoshlар nigohida" tanlovini tashkil etish va o'tkazish to'g'risida Yoshlar ishlari agentligi, Xalq ta'lifi vazirligi, Innovatsion rivojlanish vazirligi, Oliy va o'rta maxsus ta'lif vazirligi, O'zbekistondagi islam sivilizatsiyasi markazi, Fanlar akademiyasi **qaror qiladi**:

1. Oliy ta'lif va ilmiy tadqiqot muassasalarida ilmiy-izlanish olib borayotgan yosh manbashunos olimlar, tadqiqotchi va magistrler o'rtasida "Uchinchi Renessans – yoshlар nigohida" tanlovini (keyingi o'rnlarda – Tanlov deb yuritiladi) o'tkazish bo'yicha Respublika tashkiliy qo'mitasiga tarkibi 1-ilovaga muvofiq, tanlovnii o'tkazish to'g'risidagi Nizom (keyingi o'rnlarda – Nizom deb yuritiladi) 2-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

**2. Respublika tashkiliy qo'mitasiga:**

tanlovnii Nizom talablari asosida har yili bir marotaba an'anaviy o'tkazish choralarini ko'rish;

tanlovda oliy ta'lif va ilmiy tadqiqot muassasalarida ilmiy-izlanish olib borayotgan yosh manbashunos olimlar, tadqiqotchi va magistrlerning faol ishtirotini uyuştirish hamda tanloving har bir bosqichini ommaviy axborot vositalarida keng yoritish;

tanloving yakuniy respublika bosqichini yuqori saviyada o'tkazish hamda g'olib va sovrindorlarni munosib taqdirlash vazifalari yuklatilsin.

**3. Yoshlar ishlari agentligi** (S.Ashurov) tanlovnning yakuniy respublika bosqichini yuqori saviyada tashkil etish, g‘olib va sovindorlarni aniqlash hamda ularni munosib rag‘batlantirish choralarini ko‘rsin.

**4. Xalq ta’limi vazirligi** (U.Sharifxodjayev) tanlovnning birinchi bosqichini tizimidagi muassasalarda o‘tkazish hamda ilmiy-izlanish olib borayotgan yosh manbashunos olimlar, tadqiqotchi va magistrarning faol ishtirok etishini hamda tanlovnning birinchi bosqichi g‘olibi va sovindorlarini rag‘batlantirilishini tashkil etsin.

**5. Innovatsion rivojlanish vazirligi** (Sh.Turdikulova):

tanlovnning birinchi bosqichini tizimidagi muassasalarda o‘tkazish hamda ilmiy-izlanish olib borayotgan yosh manbashunos olimlar, tadqiqotchi va magistrarning faol ishtirok etishini hamda tanlovnning birinchi bosqichi g‘olibi va sovindorlarini rag‘batlantirilishini tashkil etsin;

tanlovnning yakuniy respublika bosqichi g‘oliblari loyihalarni rivojlanirish hamda g‘oliblarni belgilangan tartibda Innovatsion rivojlanish vazirligi huzuridagi Yoshlar akademiyasi a’zoligiga qabul qilish choralarini ko‘rsin.

**6. Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi** (K.Karimov) tanlovnning birinchi bosqichini muassasalarda o‘tkazish hamda ilmiy-izlanish olib borayotgan yosh manbashunos olimlar, tadqiqotchi va magistrarning faol ishtirok etishini hamda tanlovnning birinchi bosqichi g‘olibi va sovindorlarini rag‘batlantirilishini tashkil etsin.

**7. O‘zbekistondagi Islom sivilizatsiyasi markazi** (F.Xalimov):

markazda ilmiy-izlanish olib borayotgan yosh manbashunos olimlar, tadqiqotchi va magistrarning tanlovda faol ishtirok etishini tashkil etsin;

tanlov g‘oliblari haqida “Uchinchi Renessans – Yangi O‘zbekiston” kitob-fotoalbumida ma’lumotlar e’lon qilsin;

tanlov g‘oliblari va sovindorlarini O‘zbekistondagi Islom sivilizatsiyasi markazi binosi, muzeyi va kutubxonasiiga (bepul) kirib-chiqishini tashkil qilsin.

**8. Fanlar akademiyasi** (B.Abdughalimov):

tanlovnning birinchi bosqichini tizimidagi muassasalarda o‘tkazish hamda ilmiy-izlanish olib borayotgan yosh manbashunos olimlar, tadqiqotchi va magistrarning faol ishtirok etishini hamda tanlovnning birinchi bosqichi g‘olibi va sovindorlarini rag‘batlantirilishini tashkil etsin;

tanlov g‘oliblari va sovindorlariga tegishliligi bo‘yicha Fanlar akademiyasining a’zolaridan maslahatchilar biriktirish hamda ularning ilmiy izlanishlariga ko‘maklashish choralarini ko‘rsin.

**9. Belgilab qo‘yilsinki:**

tanlovnning birinchi bosqichi g‘oliblari yakuniy respublika bosqichida ishtirok etishi uchun ularga tegishli hujjatlar nizomga muvofiq, mas’ul vazirlik va idoralar tomonidan Yoshlar ishlari agentligiga yuboriladi;

Yoshlar ishlari agentligida mas’ul vazirlik va idoralarning yetakchi olimlari, professorlari va tajribali mutaxassislaridan iborat tarkibdagi Hakamlar hay’ati tomonidan tanlovnning yakuniy respublika bosqichini o‘tkazish, nomzodlarni saralash va baholash ishlari tashkil etiladi.

**10. Mazkur qaror ijrosini nazorat qilish vazirlik va idoralarning tegishli o‘rinbosarlari zimmalariga yuklatilsin.**

O'zbekiston Respublikasi  
Yoshlar ishlari agentligi direktorining  
birinchi o'rinosari

Toshkent sh.,  
2021-yil 13-dekabr,  
01-07139-son

  
S. Ashurov



O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi  
vazirining birinchi o'rinosari

Toshkent sh.,  
2021-yil 14-dekabr,  
68210-son

  
U. Sharifxodjayev



O'zbekiston Respublikasi Innovatsion  
rivojlanish vaziri o'rinosari

Toshkent sh.,  
2021-yil 13-dekabr,  
14810-son

  
Sh. Turdikulova



O'zbekiston Respublikasi  
Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirining  
birinchi o'rinosari

Toshkent sh.,  
2021-yil 13-dekabr,  
77810-son

  
K. Karimov



O'zbekistondagi Islom sivilizatsiyasi  
markazi direktori o'rinosari

Toshkent sh.,  
2021-yil 13-dekabr,  
156-8-son

  
F. Xalimov



O'zbekiston Respublikasi  
Fanlar akademiyasi vitse prezidenti

Toshkent sh.,  
2021-yil 13-dekabr,  
1512-son

  
B. Abduhalimov

O‘zbekiston Respublikasi Yoshlar ishlari agentligi,  
 Xalq ta’limi vazirligi, Innovatsion rivojlanish vazirligi,  
 Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi, O‘zbekistondagi  
 Islom sivilizatsiyasi markazi, Fanlar akademiyasining  
 2021-yil “13” dekabr dagi  
 01-07/39, 68q/q, 14-q/q, 77-q/q, 156-q, 15/2-son  
 qaroriga 1-ILOVA

**“Uchinchi Renessans – yoshlar nigohida” tanlovini o‘tkazish bo‘yicha  
 Respublika tashkiliy qo‘mitasi tarkibi**

<b>№</b>	<b>FISH</b>	<b>Ish joyi va lavozimi</b>
1.	F.Omonov	Yoshlar ishlari agentligi direktor o‘rinbosari, <i>Tashkiliy qo‘mita raisi</i>
2.	K.Karimov	Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirining birinchi o‘rinbosari, <i>Tashkiliy qo‘mita hamraisi</i>
3.	U.Sharifxodjayev	Xalq ta’limi vazirining birinchi o‘rinbosari, <i>rais o‘rinbosari</i>
4.	Sh.Turdikulova	Innovatsion rivojlanish vaziri o‘rinbosari, <i>rais o‘rinbosari</i>
5.	F.Xalimov	O‘zbekistondagi Islom sivilizatsiyasi markazi direktori o‘rinbosari, <i>rais o‘rinbosari</i>
6.	B.Abduhalimov	Fanlar akademiyasi vitse prezidenti, <i>rais o‘rinbosari</i>
7.	L.Mingishov	Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi huzuridagi Ma’naviyat va ma’rifat markazi direktori, <i>a’zo</i>
8.	A.Xudaykulov	Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi Ilmiy-tadqiqot va innovatsion faoliyatini rivojlantirish boshqarmasi boshlig‘i, <i>a’zo</i>
9.	A.Hamidov	Xalq ta’limi vazirligining Pedagog kadrlarni tayyorlash va salohiyatini oshirish sho‘basi mudiri, <i>a’zo</i>
10.	A.Ilxamov	Innovatsion rivojlanish vazirligi Startap ekotizimini shakllantirish va rivojlantirish boshqarmasi boshlig‘i, <i>a’zo</i>
11.	S.Sanakulov	Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi Ma’naviy-axloqiy tarbiya boshqarmasi xodimi, <i>a’zo</i>
12.	N.Mustofayeva	Fanlar akademiyasi ijtimoiy-gumanitar fanlar bo‘limi rahbari, <i>a’zo</i>
13.	F.Muxammadiyev	O‘zbekistondagi Islom sivilizatsiyasi markazi Matbuot kotibi, <i>a’zo</i>
14.	Q.Bobokulov	Besh tashabbus loyihibarini muvofiqlashtirish boshqarmasi boshlig‘i, <i>a’zo</i>
15.	Sh.Xonimov	Yoshlarni ijtimoiy himoya qilish va sog‘lom turmush tarzini targ‘ib qilish bo‘limi boshlig‘i, <i>a’zo</i>
16.	A.Xolmaxmatov	Yoshlar ishlari agentligi Ta’lim muassasalaridagi yoshlar bilan ishlash boshqarmasi boshlig‘i, <i>Tashkiliy qo‘mita kotibi</i>

**Izoh:** Ishchi guruh a’zolari boshqa ishga o‘tganda yoki lavozimidan ozod etilgan taqdirda, uning o‘rniga yangidan tayinlangan yoki lavozim vazifasini bajarish yuklatilgan xodim ishchi guruhi a’zosi hisoblanadi.

O‘zbekiston Respublikasi Yoshlar ishlari agentligi,  
Xalq ta’limi vazirligi, Innovatsion rivojlanish vazirligi,  
Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi, O‘zbekistondagi  
Islom sivilizatsiyasi markazi, Fanlar akademiyasining  
2021-yil “13” dekabr dagi  
01-07/39, 68q/q, 14-q/q, 77-q/q, 156-q, 15/2-son  
qaroriga 2-ILOVA

## **“Uchinchi Renessans – yoshlar nigohida” tanlovini o‘tkazish to‘g‘risida NIZOM**

### **1. Umumiy qoidalar**

1. Tanlov O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 26-martdagи “Ma‘naviy-ma’rifiy ishlari tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” PQ-5040-son hamda 2021-yil 16-iyuldagи “O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi O‘zbekistondagi islom sivilizatsiyasi markazi faoliyatini yanada takomillashtirishga doir qo‘srimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” PQ-5186-son qarorlarida belgilangan vazifalar ijrosini ta’minalash maqsadida oliy ta’lim va ilmiy tadqiqot muassasalarida ilmiy-izlanish olib borayotgan yosh manbashunos olimlar, tadqiqotchi va magistrlarni qo’llab-quvvatlash hamda ularning ilmiy izlanishlari, tadqiqot natijalarini amaliyotga tatbiq etishga qaratilgan.

2. Ushbu Nizom “Uchinchi Renessans – yoshlar nigohida” tanlovini (keyingi o‘rinlarda – Tanlov deb yuritiladi) o‘tkazishning tartiblari va muddatlari, undagi nominatsiyalar, g‘oliblarni aniqlash mezonlarini belgilaydi.

3. Tanlov tashkilotchilari Yoshlar ishlari agentligi, Xalq ta’limi vazirligi, Innovatsion rivojlanish vazirligi, Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi, O‘zbekistondagi islom sivilizatsiyasi markazi hamda Fanlar akademiyasi hisoblanadi.

4. Tanlov g‘oliblari va sovrindorlarini aniqlashda xolislik, odillik, shaffoflikni ta’minalash hamda vujudga kelishi mumkin bo‘lgan nizolarni hal etish uchun Respublika tashkiliy qo‘mitasi (keyingi o‘rinlarda – Tashkiliy qo‘mita) tomonidan Hakamlar hay’ati tashkil etiladi. Hakamlar hay’ati tarkibiga ko‘zga ko‘ringan olimlar, pedagog va amaliyotchilar, OAV va fuqarolik jamiyatni institutlari, shuningdek Tanlov tashkilotchilarining vakillari kiradi.

5. Tanlovda belgilangan mezonlar asosida O‘zbekiston Respublikasidagi oliy ta’lim va ilmiy tadqiqot muassasalarida ilmiy-izlanish olib borayotgan yosh manbashunos olimlar, tadqiqotchi va magistrlar ishtiroy etishlari mumkin.

6. Tanlov quyidagi yo‘nalishlarda o‘tkaziladi:

besh muhim tashabbusni keng joriy etish va unga yoshlar qamrovini oshirish;

yoshlar o‘rtasida IT texnologiyalar va xorijiy tillarni o‘zlashtirishning zamonaviy mexanizmlarini ishlab chiqish;

ta’limning barcha bosqichlarida yoshlarning sifatli ta’lim olishini ta’minalash, hududlarda inklyuziv ta’limni rivojlantirish bo‘yicha innovatsion yondashuv usullari (xorijiy tajriba asosida);

yoshlarni ilm-fan va innovatsiyalarga qiziqtirishning noan’anaviy usullari;

yoshlar, jumladan voyaga yetmaganlar o‘rtasida jinoyatchilik va huquqbazarliklar profilaktikasini amalga oshirish bo‘yicha ta’sirchan mexanizmlarni ishlab chiqish.

## **2. Tanloving asosiy maqsad va vazifalari**

7. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyevning O‘zbekistonda yangi bir uyg‘onish – Uchinchi Renessans davriga oid fikrlarining mazmun-mohiyatini keng o‘rganish hamda targ‘ib etish orqali yoshlarni jamiyatda olib borilayotgan ijtimoiy-siyosiy jarayonlardagi faolligi, intellektual salohiyatini rivojlantirish, ilmiy tadqiqot ishlarini faollashtirish, ularning mafkuraviy immunitetini mustahkamlashdan iborat.

8. Tanloving vazifalari:

**besh muhim tashabbusni keng joriy etish va unga yoshlar qamrovini oshirish;**  
yoshlar o‘rtasida IT texnologiyalar va xorijiy tillarni o‘zlashtirishning zamonaviy mexanizmlarini joriy etish;

yoshlar, jumladan voyaga yetmaganlar o‘rtasida jinoyatchilik va huquqbuzarlikning oldini olish va ularga qarshi kurashishning samarali mexanizmlarini ishlab chiqish;

ta’limning barcha bosqichlarida yoshlarning sifatli ta’lim olishini ta’minalash, hududlarda inklyuziv ta’limni rivojlantirish;

oliy ta’lim va ilmiy tadqiqot muassasalarida sifatli bilim olishini tashkil etishda yosh olimlar, tadqiqotchi va magistrarning shaxsiy manfaatdorligini (motivatsiyasini) oshirish;

yoshlarda yurtimizda amalga oshirilayotgan islohotlardan xabardorlik va daxldorlik hissiyotini oshirish;

yoshlarni ilm-fan va innovatsiyalarga qiziqtirishning noan’anaviy usullarini yaratish va ularni amaliyotga taqdim etish.

## **3. Nominatsiyalar bo‘yicha tanlovga taqdim etiladigan ishlarga qo‘yiladigan talablar**

9. Tanlovda ishtirok etish uchun har bir nominatsiya bo‘yicha quyidagi mazmundagi taqdimotlar taqdim etilishi mumkin:

**besh muhim tashabbusni keng joriy etishning ilg‘or texnologiyalari nominatsiyasi:**

yoshlarning musiqa, rassomlik, adabiyot, teatr va san’atning boshqa turlariga qiziqishlarini oshirishga, iste’dodini yuzaga chiqarish bo‘yicha ilg‘or g‘oyalarning ilgari surilgani;

yoshlarni jismoniy chiniqtirish, ularning sport sohasida qobiliyatini namoyon qilishlari uchun zarur sharoitlar yaratish mexanizmlarining mavjudligi;

yoshlar ma’naviyatini yuksaltirish, ular o‘rtasida kitobxonlikni keng targ‘ib qilish bo‘yicha tizimli ishlarni tashkil etishga yo‘naltirilgani;

xotin-qizlarni ish bilan ta’minalashga qaratilgani;

**yoshlar o‘rtasida IT texnologiyalarini rivojlantirishning zamonaviy usullari nominatsiyasi:**

yoshlar o‘rtasida kompyuter texnologiyalari va internetdan samarali foydalanishni tashkil etishga qaratilgani;

loyihani amalga oshirish texnologiyasining mavjudligi va uning ommabopligi;

**xorijiy tillarni o‘zlashtirishning zamonaviy usullari nominatsiyasi:**

loyihada xorijiy tillarni o‘zlashtirishda respublikaning olis hududlaridagi yoshlarni qamrab olish nazarda tutilgani;

xorijiy tillarni o‘zlashtirishda yangi tenologiyalar va elektron dasturlarning mavjudligi;

## **yoshlar o‘rtasida jinoyatchilik va huquqbazarliklar profilaktikasini amalga oshirishning ta’sirchan mexanizmlari nominatsiyasi:**

yoshlar o‘rtasida jinoyatchilik va huquqbazarliklar profilaktikasini amalga oshirishda ajdodlarimiz, xususan, Birinchi va Ikkinci Renessans, jadidchilik davrida yashab ijod qilgan allomalarimizdan qolgan ilmiy-ijodiy meros asosida samarali va innovatsion usullarning mavjudligi;

yoshlar o‘rtasida jinoyatchilik va huquqbazarliklar profilaktikasini amalga oshirish bo‘yicha ta’sirchan mexanizmlar (yoki loyihasi)ning mavjudligi;

jinoyatchilik va huquqbazarliklar profilaktikasini amalga oshirishda internet butunjahon axborot tarmog‘i imkoniyatlaridan keng foydalanish, sodir etilgan huquqbazarliklar va ularni bartaraf etish jarayoni bo‘yicha amaliy tadbirlar (taklif) berish.

## **yoshlarning sifatli ta’lim olishini ta’minlash, inklyuziv ta’limni rivojlantirishda innovatsion yechimlar nominatsiyasi:**

O‘zbekistonda ta’lim sifatini oshirishga to‘siq bo‘layotgan muammolarni keltirish va ularning yechimlari bo‘yicha asosli takliflar berish;

ta’limda sifatli bilim olishni tashkil etishda o‘quvchi-talabalarning shaxsiy motivatsiyasini oshirish, shuningdek, o‘quv jarayoni va metodikasini o‘zgartirish bo‘yicha takliflar (asosnomasi bilan) ishlab chiqish;

mamlakatda ta’lim sifatini yanada oshirish bo‘yicha zamon talablariga mos bo‘lgan milliy model taklifini berish;

ta’lim muassasalarida inklyuziv ta’limni rivojlantirishda mavjud muammolar va ularni bartaraf etish bo‘yicha asosli takliflar;

inklyuziv ta’limni rivojlantirish bo‘yicha innovatsion yondashuv usullari va yechimlari;

O‘zbekistonda ta’lim sifatini jahon standartlari darajasida takomillashtirishning natijador yo‘lini taklif qilish.

## **yoshlarni ilm-fan va innovatsiyalarga qiziqtirishning noan’anaviy usullari nominatsiyasi:**

yoshlar orasida ilm-fan va innovatsiyalarni targ‘ib qilish yuzasidan noan’anaviy usullari;

bugungi kun innovatsiyasida buyuk ajdodlarimizning qo‘sghan hissasining izini topish va aniq misollarda yoritish;

yoshlarning ilm-fan va innovatsiyalar sohasidagi yutuqlarini o‘rganish, ularni hozirgi kunda qo‘llanishi bo‘yicha aniq mexanizmlar ishlab chiqish.

10. Belgilangan har bir nominatsiya bo‘yicha tanlovnning dastlabki bosqichida ishtirokchilar o‘z loyihalarini taqdim etadi. Tanlov ishtirokchilarining taqdim etgan loyihalari Hakamlar hay’ati tomonidan ushbu nizomning 1-ilovasidagi baholash mezonlar asosida 100 ballik tizimda baholanadi.

Tanlovnning yakuniy respublika bosqichi ishtirokchilari Hakamlar hay’atining loyiha doir savollariga javob berishlari lozim bo‘ladi. Hakamlar hay’atining har bir yo‘nalish bo‘yicha xulosasiga ko‘ra, eng yuqori ball to‘plagan 3 ta loyiha orasidan Hakamlar hay’ati a’zolari tomonidan ovoz berish orqali aniqlanadi.

## **4. Tanlovnvi tashkil etish va o‘tkazish tartibi**

11. Tanlov ikki bosqichda bo‘lib o‘tadi:

Boshlang‘ich (birinchi) bosqich – oliy ta’lim va ilmiy tadqiqot muassasasida o‘tkaziladi;

Respublika (yakuniy) bosqichi – Yoshlar ishlari agentligida o‘tkaziladi.

12. Birinchi bosqich g‘oliblarini aniqlashda xolislik, odillik, shaffoflikni ta’minlash hamda vujudga kelishi mumkin bo‘lgan nizolarni hal etish uchun oliy ta’lim va ilmiy tadqiqot muassasalarida mazkur nizomning 4-bandiga muvofiq Hakamlar hay’ati tashkil etiladi. Ushbu bosqichda qaysi nominatsiya bo‘yicha taklif kelib tushsa, faqat shu nominatsiya bo‘yicha tanlov o‘tkazilishi mumkin.

13. Hakamlar hay’ati tomonidan birinchi bosqichdagi har bir nominatsiya bo‘yicha eng yaxshi deb topilgan bittadan hujjat (taqdimot) keyingi bosqichga tavsiya etiladi.

14. Hakamlar hay’atining tavsiyasiga ko‘ra, oliy ta’lim va ilmiy tadqiqot muassasasi tomonidan 1-o‘rin g‘olib va unga tegishli hujjatlar tegishliligi bo‘yicha yuqori turuvchi vazirlik yoki idoraga yuboriladi (oliy ta’lim muassasalari tomonidan hujjatlar Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligiga yuboriladi).

15. Mas’ul vazirlik va idoralar tomonidan kelib tushgan g‘olib va unga tegishli hujjatlar (har bir nominatsiya bo‘yicha) umumlashtirilib, Yoshlar ishlari agentligiga taqdim etiladi.

16. Tanloving yakuniy bosqichi Tashkiliy qo‘mita tomonidan tuzilgan Hakamlar hay’ati tomonidan o‘tkaziladi.

17. Tashkiliy qo‘mita yakuniy bosqich uchun tanlovga kelib tushgan loyihalarni Hakamlar hay’atiga taqdim etadi. Hakamlar hay’ati tomonidan har bir nominatsiya bo‘yicha mas’ul vazirlik va idoralardan kelib tushgan loyihalarni saralash va ularning taqdimoti orqali har bir yo‘nalish bo‘yicha yuqori baholangan 3 tadan loyiha ko‘rib, saralanib olinadi. Hakamlar hay’ati a’zolari tomonidan ovoz berish yo‘li bilan 1, 2, 3-o‘rinlar aniqlanadi.

18. Tashkiliy qo‘mita quyidagi chora-tadbirlarni amalga oshiradi:

tanlovnii tashkil etish va o‘tkazish bo‘yicha chora-tadbirlarni belgilaydi va amalga oshiradi;

tanlovnii yuqori saviyada o‘tkazish uchun tashkiliy qo‘mita a’zolariga vazifalarni taqsimlaydi;

tanloving yuqori saviyada vaadolatli, shaffof o‘tkazilishini ta’minlaydi;

tanlovnii Nizomga muvofiq o‘tkazilishini nazorat qiladi;

tadqiqot natijalari, maqola, videorolik, loyihalarni saralashda ushbu Nizomda belgilangan qoidalarga rioya qilmaslik holatlari aniqlansa, uni bartaraf etish yuzasidan chora-tadbirlar belgilaydi;

g‘oliblarni aniqlash va ularni taqdirlash bilan bog‘liq chora-tadbirlarni belgilaydi hamda amalga oshirilishini ta’minlaydi;

tanloving ekspert guruhi va Hakamlar hay’ati tarkibini shakillantiradi hamda ularning rahbarini belgilaydi.

19. Tanlov yilda bir marotaba ushbu nizomning 2-ilovasidagi rejaga muvofiq o‘tkaziladi.

## **5. Tanlovda ishtirok etadigan loyihalalar taqdimotiga qo‘yiladigan talablar va ularni baholash**

20. Tanlovda yakka yoki jamoa bo‘lib, 35 yoshgacha bo‘lgan yoshlar ishtirok etishi mumkin.

21. Tanlov ishtirokchisi bo‘lgan har bir shaxs yoki jamoa bitta nominatsiya bo‘yicha bitta loyiha bilan ishtirok etadi.

22. Tanlovga taqdim etilayotgan loyiha qo‘yiladigan talablar quyidagilardan iborat:

yo‘nalish bo‘yicha ko‘rsatilgan talabga yechim bo‘la olishi hamda amalga oshirish mexanizmi aniq ko‘rsatilganligi;

mavzuning mazmun-mohiyati to‘liq olib berilganligi;

muammoning yechimga qaratilganligi;

hayotga tatbiq etish, an‘anaviy va innovatsion yondashuv darajasi mavjudligi;

mavzu yuzasidan takliflar, usullar va amalga oshirish mexanizmlari.

23. Har bir nominatsiyadagi loyiha yuz ballik mezon bo‘yicha baholanadi.

## **6. Tanlov g‘oliblarini taqdirlash**

24. Tanloving birinchi bosqichi g‘olibi va sovrindorlari oliy ta’lim va ilmiy tadqiqot muassasalari tomonidan quyidagicha:

1-o‘rin – 10 mln. so‘m;

2-o‘rin – 7 mln. so‘m;

3-o‘rin – 4 mln. so‘m miqdoridagi pul mablag‘i va tegishli diplom bilan taqdirlanishi mumkin va faqat 1-o‘rin sohibi keyingi bosqichga yo‘llanmani qo‘lga kiritadi. Shuningdek, 2 va 3-o‘rin sovrindorlarining ilmiy rahbari hamda tegishli kafedra jamoasiga rektor (direktor)ning Tashakkurnomasi beriladi.

25. Tanloving respublika (yakuniy) bosqichida g‘olib bo‘lgan ishtirokchilarni rag‘batlantirish Yoshlar ishlari agentligining byudjet mablag‘lari hisobidan moliyalashtiriladi.

26. Tanlov g‘olibi va sovrindorlari Yoshlar ishlari agentligi tomonidan quyidagicha:

1-o‘rin – 30 mln. so‘m;

2-o‘rin – 20 mln. so‘m;

3-o‘rin – 10 mln. so‘m miqdoridagi pul mablag‘i, tegishli diplomlar hamda statuetkalar bilan mukofotlanadi.

27. G‘olib va sovrindorlarni taqdirlashni tashkil etish maqsadida Tashkiliy qo‘mitaning majlisi o‘tkaziladi hamda tanloving natijalari e’lon qilinadi. Tanlov g‘oliblari va sovrindorlarining ro‘yxati Tashkiliy qo‘mita tomonidan tasdiqlanadi.

28. Hakamlar hay’ati tanloving barcha nominatsiyalari bo‘yicha natijalarini umumlashtiradi, har bir ishtirokchi tomonidan to‘plangan ballar sonini ko‘rsatgan holda nominatsiyalar bo‘yicha bayonnomalarini tasdiqlaydi.

29. Tanlovda loyihalar talabga muvofiq kelmasa, Hakamlar hay’atining qarori bilan nominatsiya g‘oliblari aniqlanmasligi mumkin.

30. Tanlov ishtirokchilari tomonidan taqdim etilgan ishlar qaytarib berilmaydi va bu bo‘yicha e’tirozlar ko‘rib chiqilmaydi.

31. Tanloving respublika yakuniy bosqichini tashkil etish bilan bog‘liq ishlarning moliyaviy manbalari:

Yoshlar ishlari agentligining budjet va budgetdan tashqari mablag‘lari;

Yoshlar akademiyasining Iqtidorli yoshlarni qo‘llab-quvvatlash jamg‘armasi va qonunda ta’qilganmagan boshqa manbalar.

O‘zbekistondagi islam sivilizatsiyasi markazi budjet va budgetdan tashqari mablag‘lari;

homiylarning xayriya mablag‘lari.

32. Davlat va nodavlat tashkilotlari tanlovda homiylik qilishlari mumkin.

33. Tanloving axborot hamkorlari – O‘zbekiston milliy teleradiokompaniyasi, O‘zbekiston Milliy axborot agentligi.

## **7. Yakuniy qoidalar**

34. Tanlovda qatnashish bilan bog'liq xarajatlar Tanlov ishtirokchisi tomonidan mustaqil ravishda qoplanadi.
35. Tanlovning ishchi tili: o'zbek tili.
36. Tanlovga kelib tushgan loyihamar qonun hujjalarda belgilangan tartibda 6 oy muddat davomida saqlanadi.
37. Tanlovlardan natijalari OAVda e'lon qilib boriladi.
38. Tanlov ishtirokchisi (boshqa shaxs) tomonidan tanlovning yakuniy bosqichini Tashkil etish va o'tkazish, shuningdek, uning natijasi bilan bog'liq murojaat(e'tiroz)lar qabul qilinmaydi.

“Uchinchi Renessans – yoshlar nigohida”  
tanlovini o’tkazish to‘g’risida Nizomga  
1-ilova

## “Uchinchi Renessans – yoshlar nigohida” respublika tanloviga kelib tushgan hujjat(loyiha)larni baholash mezonlari

<b>Nº</b>	<b>Baholash mezonlari</b>	Ko‘rsatkichning umumiy reytingdagi salmog‘i	
1.	Arizachining shaxsini tasdiqlovchi hujjatning nusxasi va talablarga muvofiq taqdim etilgan ma’lumotnomalar (ob’ektivka)	<b>2 ball</b>	
2.	<b>Loyihaning mazmuni</b>	<b>23 ballgacha</b>	
1.	Loyihaning tanlov yo‘nalishiga mos tushishi, uning maqsadi va vazifalarining yoritilishi	15 ballgacha	
2.	Loyihani amaliyatga tatbiq etish darajasi	8 ballgacha	
3.	<b>Loyiha taqdimoti</b>	<b>30 ballgacha</b>	
1.	Loyiha taqdim etilgan muammoning yechimi bo‘lishi	Loyiha muammoning to‘liq yechimi bo‘la oladi Loyiha muammoning qisman yechimi bo‘la oladi Ko‘rsatilgan loyiha va taqdim etilgan muammo bir-biriga mos kelmaydi	<b>12 ball</b> 7 ball 0 ball
2.	Loyihaning originalligi, o‘ziga xosligi va talab etiladigan qo‘srimcha shart-sharoitlar	Loyiha original va o‘ziga xos bo‘lib nostandard usulda taqdim etilgan hamda amalga oshirish uchun qo‘srimcha shart-sharoit talab etilmaydi Loyiha original va o‘ziga xos bo‘lib nostandard usulda taqdim etilib, uni amalga oshirish qo‘srimcha shart-sharoit talab etiladi Loyiha original va o‘ziga xos bo‘lib nostandard usulda taqdim etilib, uni amalga oshirish uchun qo‘srimcha shart-sharoit asossiz talab etiladi Loyiha raqobatbardosh va muammoga yechim bo‘la olmaydi, qo‘srimcha shart-sharoit asossiz talab etiladi	<b>10 ball</b> 7 ball 4 ball 0 ball
3.	Taqdimotning tuzilishi (titul slayd, maqsadi, vazifalari, asosiy qism, xulosa)	Slaydlar o‘rnatalgan talablarga mos va ma’lumot to‘liq aks ettirilgan Slaydlar o‘rnatalgan talablarga mos emas va ma’lumot to‘liq aks ettirilgan Slaydlar o‘rnatalgan talablarga mos emas va ma’lumot to‘liq aks ettirilmagan	<b>8 ball</b> 4 ball 0 ball
4.	<b>Loyihaning xorijiy analoglarini mavjudligi</b>	<b>10 ballgacha</b>	
1.	Taklif etilayotgan loyihaning xorijiy analoglarini mavjudligi	Taklif etilayotgan loyihaning xorijiy analoglari mavjud emas va o‘ziga xos	10

<b>Nº</b>	<b>Baholash mezonlari</b>	Ko'rsatkichning umumiy reytingdagi salmog'i	
		Taklif etilayotgan loyihaning xorijiy analoglari bor, biroq farqli tomonlari yoritib berilgan	7
		Taklif etilayotgan loyihaning xorijiy analoglari mavjud va uni deyarli takrorlaydi	3
<b>5.</b>	<b>Loyiha bo'yicha videorolik</b>	<b>20 ballgacha</b>	
1.	Videorolikda loyihaning yoritib berilishi	Videorolikda loyiha to'liq, mantiqan ketma-ketlikda yoritib berilgan	<b>15 ball</b>
		Videorolikda loyiha to'liq yoritib berilgan, mantiqan ketma-ketlik mavjud emas	10 ball
		Videorolikda loyiha to'liq yoritib berilmagan	5 ball
		Loyiha bo'yicha videorolik taqdim etilmagan	0 ball
2.	Videorolikning talablarga javob berishi (1 daqiqadan oshmagan, .avi, .mp4 formatida)	Talablarga javob beradi	<b>5 ball</b>
		Talablarga qisman javob beradi	3 ball
		Talablarga javob bermaydi	0 ball
<b>6.</b>	<b>Loyihaning istiqbolli rejasi</b>	<b>15 ballgacha</b>	
1.	Taklif etilgan loyiha istiqbolli rejaga ega bo'lishi hamda ajratiladigan mablag'lar asosida amalga oshiriladigan ishlar (amalga oshirish mexanizmi asoslanganligi)	Loyihaning istiqbolli rejasi hamda ajratiladigan mablag'lar asosida amalga oshiriladigan ishlar to'liq yoritilgan	15
		Loyihaning istiqbolli rejasi qoniqarli yoritilgan hamda ajratiladigan mablag'lar asosida amalga oshiriladigan ishlar to'liq yoritilgan	10
		Loyihaning istiqbolli rejasi qoniqarsiz yoritilgan hamda ajratiladigan mablag'lar asosida amalga oshiriladigan ishlar yoritilmagan	5
		Loyihaning istiqbolli rejasi yoritilmagan	0
<b>Jami:</b>			

“Uchinchi Renessans – yoshlar nighida”  
tanlovini o’tkazish to’g’risida Nizomga 2-ilova

## “Uchinchi Renessans – yoshlar nighida” tanlovini o’tkazish

### S X E M A S I

Bosqichlar	Tadbirlar	Muddatlar	Mas’ullar	Vazirlik va idoralar
<b>Birinchи bosqich</b>	<p>Tanlov haqida targ’ibot ishlarini tashkil etish Ishtirokchilardan ariza va hujjatlarni qabul qilishni tashkil qilish</p> <p>Ishtirokchilarining hujjatlarni ko’rib chiqish hamda g’olib va sovrindorlarni aniqlash</p> <p>Tanlov g’oliblarining hujjatlarni yuqori turuvchi vazirlik va idoraga yuborish</p> <p>Tanlov g’oliblarining hujjatlarni to’plib, respublika bosqichida ishtiroy etish uchun Yoshlar ishlari agentligiga yuborish</p>	<p><b>har yili 1-chorak</b></p> <p><b>har yili 1-20-may kunlari</b></p> <p><b>har yili 10-30-iyun kunlari</b></p> <p><b>har yili 1-20-iyul kunlari</b></p> <p><b>har yili 10-20-avgust kunlari</b></p>	<p>Oliy ta’lim va ilmiy tadqiqot muassasalari</p>	<p>Tasarrufda olly ta’lim va ilmiy tadqiqot muassasalari mavjud vazirlik va idoralar</p>
<b>Respublika (yakuniy) bosqich</b>	<p>Vazirlik va idoralardan keladigan hujjatlarni qabul qilishni tashkil etish</p> <p>Ishtirokchilarining hujjatlarni ko’rib chiqish hamda g’olib va sovrindorlarni aniqlash</p> <p>Tanlov g’olib va sovrindorlarni taqdirlash marosimini tashkil etish</p> <p>Tanlovi ommaviy axborot vositalarida keng yoritishni tashkil etish</p>	<p><b>har yili 10-20-avgust kunlari</b></p> <p><b>har yili 1-20-oktabr kunlari</b></p> <p><b>Tashkiliy qo’mita qaroriga ko’ra belgilangan muddatda</b></p> <p><b>Tanlov jarayonida</b></p>	<p>Yoshlar ishlari agentligi</p>	<p>Respublika tashkiliy qo’mitasiga</p> <p>Respublika tashkiliy qo’mitasiga</p> <p>Barcha mas’ul vazirlik va idoralar</p>